

ARXITEKTURA OB'EKTLARIGA IQLIM TA'SIRI

Sobitova Faridaxon Qodir qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy Rassomlik va Dizayn institute

Kasbiy ta'lim Interier loyihalash yo'nalishining

3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bino va inshootlar qurilishida iqlim sharoitining ta'siri va turli zamonaviy texnologilarni qo'llash orqali qulayliklar tashkil etish masalalari yoritiladi. Zamonaviy bino interierlarida ekologik muhitni tashkil etish usullari tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы влияния климатических условий при строительстве зданий и сооружений и организации условий для применения различных современных технологий. Анализируются методы организации экологической среды в интерьерах современных зданий.

Abstract: This article highlights the issues of the influence of climatic conditions during the construction of buildings and structures and the organization of conditions for the use of various modern technologies. The methods of organizing the ecological environment in the interiors of modern buildings are analyzed.

Kalit so'zlar: peshayvon, arkalar, bambuk, monstera, aloe vera, palma, sansevieriya, energiya tejamonkor va estetik jihatdan.

Bino va inshootlar qurilishida iqlim sharoitining ta'siri juda katta ahamiyatga ega, chunki bino va inshootlar qurilishi har xil iqlim zonalarida joylanadi. Qurilish ob'ektlarini joylashuviga va issiqlik izolyatsiyasi, drenaj tizimlari va boshqa ko'plab omillar turlicha bo'ladi. Birgina misol qilib Toshkent shahrini olishimiz mumkin. Sharrimiz iqlim sharoiti mo'tadil hisoblanadi, uning markaz qismida zichlik kuchli bo'lganligi sababli issiqlik darajasi yuqori. Zamonaviy binolar qurilishi shiddat bilan o'sib borishi natijasida esa zichlik yanada ortib bormoqda. Binolarda mo'tadil iqlimni saqlash uchun zamonaviy eko uslublardan foydalanish ijobiy natija beradi. Bunda bino turlariga nisbatan o'simliklarni tanlash, sun'iy suv havzalari va boshqa funksional vazifalarni bajaruvchi kichik arxitekturaviy shakllardan foydalanish mumkin.

Inson yashash muhiti doimo qulay bo'lishi kerak. Bunda arxitektura va interier dizayni muhim rol o'ynaydi. Iqlim sharoitlari, quyosh nurlari, havo aylanishi kabi omillar inobatga olinmasa, bino ichidagi harorat keskin o'zgarib, inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, arxitektura tura (ya'ni bino tuzilmasi) va interierda mo'tadillikni saqlash zamonaviy va an'anaviy yechimlar orqali ta'minlanadi. Arxitekturada tabiiy materiallar g'isht, tosh, loy, zamonaviy issiqlik izolyatsiyasi yordamida binoning ichki haroratini me'yorda saqlash mumkin. Binolarni ekstierida esa peshayvon, arkalar, deraza

panjaralari yordamida to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari binoga tushishining oldi olinadi. Bunda binolarni joylashuvi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Quyosh nuri tik tushadigan janub qismida zamonaviy eko bloklardan fodalanib binoni tashqi qismiga vertical o'simliklardan foydalanish ijobiy natija beradi. Bundan tashqari bino eksteryerlarining ranglari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib ko'pincha issiq iqlim sharoitida och rang tuslaridan foydalanish tavsiya etiladi. Zamonaviy interyerlar tabiiy, zararli moddalardan holi materiallardan foydalanishga intiladi. Bunday materiallarga yog'och, bambuk, paxta, zig'ir, tosh kiradi. Ular qayta ishlanishi mumkin bo'lib, inson salomatligiga zarar yetkazmaydi. Formaldegid va uchuvchi organik birikmalar saqlamagan materiallar tanlanadi. Inson ko'p vaqtini o'tkazadigan binolarda me'yorda belgilangan qoidalarga amal qilish qat'iy talab etiladi. Ekologik interyer dizaynining asosiy tamoyillaridan biri – bu energiyani tejash hisoblanadi. Energiyani tejash samarali foydalanish avloddan avlodga yetkazish masalalari har doim dolzarb bo'lib qolaveradi. Zamonaviy qurilishlardatabiiy soflikga erishish uchun samarali energiya manba'laridan foydalanish tavsiya etiladi. LED yoritgichlar, avtomatik o'chadigan chiroqlar, harakat sensorlari va tabiiy yorug'likdan maksimal darajada foydalanish orqali energiya sarfi kamaytiriladi. Issiqlik izolyatsiyasi va tabiiy shamollatish orqali isitish va sovitish tizimlariga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Fitodizayn – ichki muhitga o'simliklar kiritish orqali estetik va ekologik muvozanatni ta'minlashdir. O'simliklar havoni tozalaydi, kislorod ishlab chiqaradi va namlikni ushlab turadi. Mashhur o'simliklar orasida monstera, aloe vera, palma va sansevieriya zamonaviy binolarda qo'llanilmoqda. Interyerlardagi jihozlar ham muhim o'rin tutadi. Qayta ishlangan yoki uzoq xizmat qiladigan yog'och, metall mebellar tanlanadi. Modulli mebellar esa qayta yig'ish va moslashtirish imkonini beradi, bu esa chiqindi kamligini ta'minlaydi.

Mo'tadillikni saqlash nafaqat energetik jihatdan samarali, balki inson salomatligi va qulay hayoti uchun ham zarurdir. Arxitektura tura va interyer dizayni elementlari to'g'ri tanlanganda, bino ichki harorati fasllar o'zgarishidan qat'i nazar, qulay bo'lib qoladi. Bu esa zamonaviy ekologik va energiya tejamkor loyihalarning asosiy mezonidir. Zamonaviy bino interyerlarida ekologik muhitni tashkil etishda zamonaviylik va tabiiylikni uyg'unlashtirish, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlash nazarda tutiladi. Bunday yondashuv nafaqat ekologik foydali, balki sog'lom, energiya tejamkor va estetik jihatdan ham jozibador hisoblanadi. Har bir dizayner va foydalanuvchi bu yondashuvni hayot tarziga aylantirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish me'yorlari va qoidalari (O'RQMQ).
2. "Iqlimga mos arxitektura" – Arx. Yo. Xolmatov, Toshkent, 2020.
3. Green Architecture Guide – World Green Building Council, 2021.
4. Sustainable Interior Design – Wiley Publications, 2021.
5. "Yashil me'morchilik asoslari" – Arx. Sh. Eshboev, Toshkent, 2020.
6. World Green Building Council: www.worldgbc.org